

TIJORAT BANKLARI KREDITLASH FAOLIYATINING NAZARIY JIHATLARI**Tadjibayev Sherzod Tairovich****Iqtisodiyot magistri****<https://doi.org/10.5281/zenodo.21817782>****Kalit soʻzlar:** tijorat banki, kredit, kreditlash amaliyoti, kreditlash shakllari, foiz stavkasi.**Ключевые слова:** коммерческий банк, кредит, кредитная практика, формы кредитования, процентная ставка.**Key words:** commercial bank, loan, lending practice, forms of lending, interest rate.**Kirish**

O'zbekiston bank tizimini rivojlantirishning zamonaviy bosqichida kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etilgan [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi PF-109-sonli "Faktoring xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida kreditlashning istiqbolli shakli bo'lgan faktoring amaliyotining huquqiy asoslari o'z ifodasini topgan [2].

Asosiy qism

Ye.Litvinovning fikriga ko'ra, tijorat banklari tomonidan chakana kreditlar bo'yicha foiz to'lovlarini undirishning annuyitet usulini qo'llanilishi jismoniy shaxslarning kredit bo'yicha to'lov yukini oshishiga olib keladi. Shu sababli, kredit oluvchi jismoniy shaxslarga kredit bo'yicha to'lov usullarini (tabaqalashgan yoki annuyitet) tanlash imkonini berilishi foiz stavkalarining rag'batlantiruvchanlik mazmunini kuchaytirish imkonini beradi [3].

A.Mian va A.Safi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar ko'rsatdiki, uy xo'jaliklarining o'z risklarini nazorat qilish imkoniyatlari firmalarnikiga qaraganda sezilarli darajada cheklangandir. Bu esa, uy xo'jaliklariga berilgan kreditlarni o'z vaqtida qaytmaslik ehtimolini oshiradi [4].

M.Bauyetdinov tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, kreditlar va foizlar banklargaka qaytarilmasdan muddati bir necha bor uzaytirib kelinmoqda. Bu uzaytirishlar faqat ichki uzaytirishlar bo'lib, tashqi kreditorlar bilan faqat 4 ta korxona, ya'ni «Farg'ona furan birikmalari zavodi», «Kaolin», «O'zsmatana santexnika» va «Xobas Tapo» ko'shma korxonalarininggina 30 mln. AQSH dollari miqdoridagi kreditlarining muddati uzaytirilgan xolos; hukumat tomonidan kafolatlangan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan kreditlar yil boshidan yil oxiriga tomon u oshib boradi, yangi yilda esa «yangi uzaytirishlar» hisobidan u kamayadi, muddati uzaytirilgan kreditlar esa yana ko'payadi. Bu «an'ana» bank uchun xavfli ekanligini aytib o'tish joizdir; xorijiy kredit liniyalari hisobidan kredit olgan «O'zsmatana santexnika» (16 mln. AQSH dollari), «Xobas Tapo» (51868 ming AQSH dollari), «Kaolin» (27401 ming AQSH dollari), «O'zeksayd» (53627 ming AQSH dollari), «Yantak Brit» (2090 ming AQSH dollari), qo'shma korxonalari «Bolalar taomlari» Xolding kompaniyasi (58898 ming AQSH dollari), «Asnam tekstil» ko'shma korxonasi Vazirlar Mahkamasining qarori va Texnik iqtisodiy asoslarda ko'rsatilgan muddatlarda ishga tushirilmaganligi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarini eksport qilinishi belgilangan korxonalar («Ohangaronstroyplast»,

Yengil sanoat Uyushmasi tizimidagi qo'shma korxonalar «Kaolin» qo'shma korxonasi) o'z mahsulotlarini eksport qila olmaganligi natijasida xorijiy kreditorlarga bank o'z mablag'lari hisobidan kredit va uning foizlarini to'lab bergan; investitsion loyihalarning o'zini oqlamasligi banklarning uzoq muddatli kreditlarini o'z vaqtida qaytmasligining asosiy sabablaridan biridir [5].

“2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi”da respublika tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash bo'yicha quyidagi vazifalar qo'yilgan: «moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati ko'rsatishni modernizatsiya qilish, kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshila, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejrlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish» [6].

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining o'rtacha yillik foiz stavkalari[1], foizda

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Milliy valyutadagi qisqa muddatli (1-yilgacha) kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi	23,6	22,1	21,3	22,2	23,1
Milliy valyutadagi uzoq muddatli (1-yildan ortiq) kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi	23,8	22,5	20,6	21,7	22,4
Xorijiy valyutadagi qisqa muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi	8,1	6,7	7,0	6,7	8,8
Xorijiy valyutadagi uzoq muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi	6,9	7,0	6,5	6,6	8,4

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki:

- O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan qisqa muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2022-2024-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda tijorat banklarining 1-yilgacha muddatdagi milliy valyutadagi depozitlarining o'rtacha yillik foiz stavkasini oshish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

- respublikamiz tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan uzoq muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2022-2024-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda 1-yildan ortiq muddatdagi milliy valyutadagi depozitlarining o'rtacha yillik foiz stavkasini oshish tendensiyasiga ega bo'lganligi va inflyasiya darajasini nisbatan yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi.

- mamlakat tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada berilgan qisqa muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2024-yilda 2018-yilga nisbatan sezilarsiz darajada (0,1 f.p.) oshgan.

Tahlillar ko'rsatdiki:

-Asakabankda kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2022-2024-yillarda esa, pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan;

-O'zmilliybankda kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2019-2021-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, ushbu ko'rsatkichning darajasi 2024-yilda 2018-yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgan.

Xulosa

Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- kreditlar bo'yicha foiz stavkasini foizli marja hisobidan pasaytirish imkoniyati bank mahsulotlari tannarxini pasayishi bilan belgilanadi. Bunda, foizli spred miqdorining umumiy quyi chegarasi bo'lib, yetarli darajadagi foizli marja hisoblanadi;

- uy xo'jaliklarining o'z risklarini nazorat qilish imkoniyatlari firmalarnikiga qaraganda sezilarli darajada cheklangandir. Bu esa, uy xo'jaliklariga berilgan kreditlarni o'z vaqtida qaytmalik ehtimolini oshiradi;

- "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi"da respublika tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash bo'yicha moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati ko'rsatishni modernizatsiya qilish, kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshila, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish kabi muhim vazifalar qo'yilgan;

-Asakabankning kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori 2020-2024-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;

-Asakabankda kreditlardan olingan foizli daromadlarni jami foizli daromadlardagi ulushi 2019-2021-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, mazkur ko'rsatkich 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan;

- O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan qisqa muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2022-2024-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda tijorat banklarining 1-yilgacha muddatdagi milliy valyutadagi depozitlarining o'rtacha yillik foiz stavkasini oshish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

- respublikamiz tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan uzoq muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2022-2024-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda 1-yildan ortiq muddatdagi milliy valyutadagi depozitlarining o'rtacha yillik foiz stavkasini oshish tendensiyasiga ega bo'lganligi va inflyasiya darajasini nisbatan yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi.

- mamlakat tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada berilgan qisqa muddatli kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2024-yilda 2018-yilga nisbatan sezilarsiz darajada (0,1 f.p.) oshgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni//QHMMB:06/205992/0581-son. 13.05.2020 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi PF-109-sonli Farmoni. Faktoring xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 14.08.2024 y., 06/24/109/0613-son.
3. Valenseva N.I. Senoobrazovaniye na rynke bankovskix uslug//Bankovskoye delo. – Moskva, 2013. – №11. – S. 39.
4. Litvinov Ye.O. Kreditnoye bremya naseleniya Rossii: voprosy teorii i metodologii. Monografiya. – Volgograd, 2012. – S. 14.
5. Mian A., Rao K., Sufi A. Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump//Quarterly Journal of Economics. – 2013. – 128(4). – pp. 1687 - 1726.
6. Bauyetdinov M.J. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsion xarajatlarini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish. I.f.b.f.d. diss. – Toshkent, 2019. – 114 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni//QHMMB:06/205992/0581-son. 13.05.2020 y.